**Abstract:** This article analyzes the improvement of an integrated management model for promoting women's employment in the transport sector and assesses its impact on women's economic status, using ride-hailing services as an example. The study examines the theoretical and practical aspects of increasing women's economic participation in the transport industry and ensuring the effective utilization of human capital. Drawing on international experience, particularly the operations of Uber and other ride-hailing

platforms, as well as reports by the International Finance Corporation (IFC), the study analyzes the factors influencing women's participation in driving, existing barriers, and mechanisms for overcoming them. In addition, statistical data on the number of unemployed women in the Republic of Uzbekistan, the activities of taxi aggregators, and the number of women drivers working as self-employed individuals were examined. Based on the findings, scientific and practical proposals and recommendations were developed to improve the integrated management model aimed at increasing women's employment in the transport sector.

**Keywords:** transportation, women's employment, integrated management model, gender equality, human capital, women drivers, ride-hailing services, taxi aggregators.

## KIRISH

Ayol — mehr-muhabbat, sadoqat va go'zallik timsoli bo'lishi bilan birga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutuvchi, oilaviy farovonlik va mehnat resurslarini shakllantirishda faol ishtirok etuvchi hamda inson kapitalining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda ayollarning bilimi, kasbiy salohiyati va mehnat imkoniyatlaridan samarali foydalanish har qanday mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida gender tengligini ta'minlash, ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish va munosib bandlik imkoniyatlarini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki ayollar bandligini oshirish nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlash, balki mamlakat iqtisodiy salohiyatini kengaytirish, oilalar daromadlarini oshirish hamda inson kapitalidan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ayollar uchun yangi va moslashuvchan bandlik imkoniyatlarini yaratish mumkin bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday istiqbolli yo'nalishlardan biri transport sohasi hisoblanadi.

Transport odamlar, hayvonlar va yuklarni bir joydan boshqa joyga ko'chirish jarayonini ta'minlovchi muhim iqtisodiy faoliyat sohasi bo'lib, havo, quruqlik, suv hamda kosmik transport turlarini qamrab oladi. Transport insonlar o'rtasidagi savdo-sotiqni ta'minlash, aholining harakatchanligini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Biroq, mazkur soha tarixan erkaklar ustunlik qiladigan faoliyat yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan va unda ayollar ishtiroki boshqa tarmoqlarga nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda [2].

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida esa transport xizmatlari tizimida yangi yo'nalishlar, xususan, ride-hailing xizmatlari shakllandi. Ride-hailing — bu yo'lovchilarni professional haydovchilar bilan raqamli platforma orqali bog'laydigan transport xizmatidir. An'anaviy ko'chada to'xtatiladigan taksilardan farqli ravishda, mijozlar mobil ilova orqali transport xizmatiga buyurtma beradi va tizim ularni eng yaqin bo'sh haydovchi bilan bog'laydi. Ushbu xizmat naqd va naqd pulsiz to'lov, shaffoflik hamda maksimal qulaylik tamoyillari asosida ishlaydi hamda yo'lovchilarga yanada ko'proq moslashuvchanlik va xavfsizlikni taqdim etadi [3]. Mazkur xizmat ayollar uchun yangi bandlik imkoniyatlarini yaratib, ularning transport sohasidagi ishtirokini kengaytirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — transport sohasida ayollar bandligini ta'minlashning integratsiyalashgan boshqaruv modelini ride-hailing xizmatlari misolida tahlil qilish, ayollarning transport tarmog'idagi iqtisodiy faolligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyotidagi loyihalarni o'rganish hamda ayollarni transport xizmatlari bozoriga kengroq jalb etish, gender tengligini mustahkamlash va inson kapitalidan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, taksi haydovchiligi kasbi an'anaviy ravishda erkaklar kasbi sifatida qaralib, bu jamoat yo'llarida yuzaga keladigan kutilmagan vaziyatlarga tezkor munosabat bildirish qobiliyati bilan bog'lab kelingan. Biroq XX asr davomida ushbu stereotiplarni buzgan dastlabki ayol taksi haydovchilari paydo bo'la boshladi. 1915-yilda Wilma Russey Nyu-York shahridagi birinchi ayol taksi haydovchisi bo'ldi. Londonda esa 1967-yilda Shirley Preston mashhur The Knowledge — London qora taksilari haydovchilari uchun majburiy tayyorgarlik va imtihondan muvaffaqiyatli o'tib, birinchi ayol taksi litsenziyasini qo'lga kiritdi [4].

So'nggi o'n yil davomida esa raqamli platformalar orqali taksi chaqirish sanoati jadal rivojlandi va shahar transport tizimlarini o'zgartirib, yangi ish o'rinlarini yaratdi. Ushbu o'zgarish, ayniqsa, ishsizlik darajasi yuqori, rasmiy ish o'rinlari cheklangan va ayollar zimmasidagi oilaviy parvarish majburiyatlari katta bo'lgan

mamlakatlarda moslashuvchan ish imkoniyatlariga ehtiyoj sezayotgan ayollar uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ayollarga bu faoliyat orqali nafaqat ko‘proq pul topish, balki muntazam daromad va moliyaviy mustaqillik hissiga ega bo‘lish imkoniyati yaratildi [5]. Masalan, Uber platformasining bo‘lajak haydovchilar uchun mo‘ljallangan sahifasida quyidagi shior keltiriladi: “Qachon xohlasangiz haydang, o‘zingizga kerakli daromadni toping va ish jadvalingizni o‘zingiz belgilang.” Shunga qaramay, ride-hailing sohasi asosan erkaklar ustun bo‘lgan soha hisoblanadi. Birgina Indoneziya misolida oladigan bo‘lsak, 2019-yilda ayol haydovchilar barcha ride-hailing haydovchilarining atigi 2,4 foizini tashkil qilgani taxmin qilingan [6].

Xalqaro moliya korporatsiyasi (International Finance Corporation, IFC) hisobotiga ko‘ra, 2030-yilga borib, ride-hailing xizmatlaridan foydalanish hajmi sakkiz baravar oshib, kunlik safarlar soni 100 millionga yaqinlashishi prognoz qilinmoqda. Biroq, hisobotda yozilishicha, dunyo bo‘ylab ayollar erkaklarga nisbatan haq to‘lanadigan mehnat va transport xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarida ko‘proq to‘siqlarga duch keladilar. Bunga transport xizmatlari narxining yuqoriligi, transport vositalariga egalik qilish imkoniyatining cheklanganligi, shaxsiy xavfsizlik bilan bog‘liq xavotirlar sabab bo‘lmoqda. Ushbu omillar nafaqat ayollarning daromad topish imkoniyatlarini kamaytiradi, balki ularning hamda ular g‘amxo‘rlik qilayotgan bolalar yoki boshqa oila a’zolarining sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini ham cheklaydi.

Shu o‘rinda aytish lozimki, ride-hailing platformalari haydovchilik kasbiga kirishdagi ayrim to‘siqlarni kamaytiradi. Jumladan, AQSHda Uber platformasidan foydalanuvchi haydovchilarning taxminan 20 foizini ayollar tashkil etadi. Ayollar Uber platformasida haydovchi sifatida ishlashni turli sabablarga ko‘ra tanlaydilar, biroq ular uchun eng muhim afzallik ish vaqtini mustaqil belgilash imkoniyati hisoblanadi. Ride-hailing ilovalari orqali ish boshlash uchun talablarning nisbatan sodda bo‘lishi ayollarga ilgari deyarli kirish imkoniyati bo‘lmagan haydovchilik kasbiga kirishni osonlashtiradi.

Qolaversa, hisobotda ko‘rsatilishicha, ride-hailing faoliyatini boshlagan ayollarning daromadi erkaklarnikiga qaraganda ko‘proq oshgan [7].




**1-rasm. Buyuk Britaniya va Misrda ayollar va erkaklarning taksi ilovalari orqali haydovchilik faoliyatidagi daromad o‘sishi[1]**

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida transport sohasida ayollar bandligini ta’minlashning integratsiyalashgan boshqaruv modelini takomillashtirish: ride-hailing xizmatlari misolida O‘zbekiston Respublikasi va chet eldagi mavjud loyihalar, xorijiy olimlarning ilmiy ishlari va ilmiy maqolalari o‘rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli

---

1 Manba: International Finance Corporation World Bank Group. (2018), “Driving Toward Equality: women, ride-hailing, and the sharing economy executive summary” da berilgan ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan sun‘iy intellekt yordamida tayyorlandi.

yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil va umumlashtirish usullari tashkil etdi. Tadqiqotning qiyosiy tahlil usuli yordamida xorijiy mamlakatlarda, xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Misr, Indoneziya va Avstraliyada ayollarning ride-hailing xizmatlaridagi ishtiroki bilan bog‘liq tajribalar o‘rganildi va qiyoslandi.

Tadqiqotda statistik tahlil usuli ham muhim o‘rin egalladi. O‘zbekistonda ayollar va erkaklar ishsizligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida taksi agregatorlari faoliyati, yo‘lovchi tashish hajmi, o‘zini o‘zi band qilgan haydovchilar soni va ular orasidagi ayol haydovchilar ulushi bo‘yicha rasmiy ma’lumotlardan foydalanildi.

Shuningdek, tadqiqotda umumlashtirish usulidan ham foydalanildi. Xalqaro tashkilotlar, ilmiy adabiyotlar va ride-hailing platformalari faoliyatiga oid ma’lumotlar tahlil qilinib, ularning umumiy jihatlari va ayollar bandligini oshirish nuqtayi nazaridan amaliy ahamiyati umumlashtirildi. Xususan, International Finance Corporation (IFC) tomonidan taqdim etilgan ride-hailing xizmatlari va ayollar bandligiga oid tadqiqotlar asosida ayollarning mazkur faoliyatga kirib kelishidagi mavjud to‘siqlar va iqtisodiy tomonlari o‘rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2026-yil 6-fevral kuni bergan ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yil yakunlariga ko‘ra, 224 ta taksi agregatori soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan va jami 479 mln. marta yo‘lovchi tashish amalga oshirilgan. Yo‘lovchi tashish aylanmasi 9,6 trln. so‘mdan oshgan. Shundan:

- 6,7 trln. so‘m yoki 70,2% – naqd to‘lovlar;
- 2,8 trln. so‘m yoki 29,8% – naqdsiz to‘lovlar.

O‘rtacha bitta chek 20 082,5 so‘mni tashkil etgan.

Agregatorlar orqali yo‘lovchi tashish bilan 574 625 nafar o‘zini o‘zi band qilgan haydovchilar shug‘ullanmoqda. Ularning 4 726 nafari ayollardir [8].




**2-rasm. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi soliq organlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan 224 ta taksi agregatori va amalga oshirilgan yo‘lovchi tashish statistikasi[2]**

Mazkur ko‘rsatkichlar ride-hailing xizmatlari O‘zbekiston transport xizmatlari bozorida sezilarli iqtisodiy segmentga aylanib borayotganini ko‘rsatadi. Eng muhimi, ushbu platformalar nafaqat yo‘lovchilar uchun transport xizmatlarini taqdim etmoqda, balki o‘zini o‘zi band qilish asosida daromad topish imkoniyatini ham kengaytirmoqda. Biroq, ushbu daromadli sohada ayollar ulushi hali yetarli darajada emas.

2 Manba: https://gov.uz/oz/soliq/news/

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlarida ayollar o‘rtasidagi ishsizlar soni erkaklar ishsizligiga nisbatan yuqori ekanligi kuzatiladi.

| Kesim | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi | 304,8 | 347,7 | 350,9 | 358,6 | 385,5 | 398,2 | 406,5 | 469,9 | 646,4 | 510,0 | 661,8 | 585,3 | 459,8 | 363,2 | 347,3 | 299,3 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 21,1 | 23,0 | 22,7 | 22,3 | 19,7 | 19,5 | 20,2 | 23,0 | 37,6 | 26,1 | 35,8 | 33,1 | 23,1 | 11,8 | 19,9 | 18,1 |
| Andijon viloyati | 30,6 | 35,4 | 36,4 | 37,7 | 40,5 | 41,5 | 42,6 | 46,7 | 60,2 | 48,6 | 63,5 | 56,7 | 34,7 | 24,0 | 31,5 | 27,1 |
| Buxoro viloyati | 19,3 | 22,5 | 22,4 | 22,9 | 25,3 | 27,0 | 26,4 | 27,0 | 31,8 | 29,7 | 39,0 | 34,3 | 26,2 | 12,9 | 18,2 | 21,3 |
| Jizzax viloyati | 11,0 | 12,3 | 12,1 | 12,7 | 14,1 | 13,8 | 14,9 | 14,0 | 26,4 | 20,3 | 26,9 | 24,5 | 20,0 | 12,6 | 14,5 | 9,7 |
| Qashqadaryo viloyati | 27,7 | 31,6 | 32,9 | 33,0 | 36,2 | 37,4 | 37,3 | 44,4 | 64,7 | 47,8 | 66,4 | 55,4 | 42,6 | 37,5 | 34,3 | 33,2 |
| Navoiy viloyati | 9,8 | 11,5 | 12,1 | 12,8 | 13,0 | 12,6 | 12,6 | 13,1 | 15,4 | 16,3 | 18,8 | 17,1 | 8,1 | 15,3 | 9,0 | 2,3 |
| Namangan viloyati | 24,4 | 27,9 | 28,3 | 28,6 | 30,1 | 30,8 | 32,6 | 37,0 | 58,2 | 40,1 | 50,8 | 45,9 | 44,3 | 36,4 | 28,6 | 31,4 |
| Samarqand viloyati | 36,6 | 41,7 | 41,9 | 42,7 | 46,6 | 48,9 | 51,1 | 60,2 | 72,8 | 55,1 | 73,2 | 63,3 | 52,3 | 33,9 | 35,5 | 19,9 |
| Surxondaryo viloyati | 23,1 | 26,4 | 26,8 | 27,3 | 29,8 | 30,8 | 32,6 | 40,7 | 48,0 | 40,3 | 53,3 | 47,0 | 41,2 | 32,6 | 27,7 | 18,4 |
| Sirdaryo viloyati | 7,1 | 8,3 | 7,9 | 8,7 | 9,7 | 10,3 | 9,1 | 10,6 | 19,4 | 13,3 | 16,7 | 14,8 | 12,3 | 10,2 | 9,3 | 5,2 |
| Toshkent viloyati | 22,4 | 26,1 | 25,0 | 25,8 | 28,2 | 29,9 | 30,3 | 39,4 | 60,1 | 46,3 | 57,5 | 51,1 | 40,9 | 29,6 | 32,2 | 34,0 |
| Farg‘ona viloyati | 37,2 | 39,9 | 40,8 | 40,7 | 46,3 | 47,8 | 49,3 | 58,5 | 70,8 | 54,7 | 70,8 | 63,8 | 51,9 | 48,0 | 43,1 | 42,8 |
| Xorazm viloyati | 16,5 | 19,5 | 20,1 | 20,9 | 22,1 | 22,2 | 23,3 | 24,8 | 35,2 | 28,9 | 37,0 | 32,7 | 21,3 | 19,3 | 18,2 | 10,7 |
| Toshkent shahri | 18,0 | 21,6 | 21,5 | 22,5 | 23,9 | 25,7 | 24,2 | 30,5 | 45,8 | 42,5 | 52,1 | 45,6 | 40,9 | 39,1 | 25,3 | 25,2 |

**3-rasm. O‘zbekistonda erkaklar o‘rtasidagi ishsizlar soni, ming kishi[3]**

| Kesim | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi | 353,4 | 274,7 | 275,4 | 281,1 | 301,5 | 311,2 | 317,5 | 367,1 | 722,2 | 825,3 | 899,2 | 856,5 | 872,9 | 660,9 | 488,7 | 445,6 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 25,5 | 18,7 | 18,6 | 18,0 | 16,0 | 15,9 | 16,3 | 18,6 | 36,7 | 44,8 | 46,8 | 45,8 | 48,8 | 44,5 | 26,5 | 24,3 |
| Andijon viloyati | 37,6 | 29,2 | 29,9 | 30,8 | 33,2 | 34,1 | 34,9 | 38,2 | 74,6 | 80,8 | 87,1 | 82,1 | 95,8 | 76,7 | 45,4 | 43,5 |
| Buxoro viloyati | 22,6 | 17,8 | 17,7 | 18,0 | 20,0 | 21,2 | 20,7 | 21,1 | 45,8 | 48,6 | 54,9 | 50,6 | 49,6 | 42,7 | 26,9 | 20,2 |
| Jizzax viloyati | 12,0 | 9,2 | 9,1 | 9,5 | 10,5 | 10,2 | 11,1 | 10,4 | 26,4 | 33,8 | 38,9 | 37,4 | 36,3 | 30,9 | 20,1 | 21,0 |
| Qashqadaryo viloyati | 31,6 | 24,6 | 25,4 | 25,3 | 27,8 | 28,7 | 28,8 | 34,2 | 66,6 | 77,5 | 80,5 | 81,6 | 81,6 | 59,0 | 46,6 | 36,2 |
| Navoiy viloyati | 11,3 | 9,0 | 9,4 | 10,0 | 10,1 | 9,8 | 9,8 | 10,2 | 23,2 | 21,9 | 22,7 | 22,7 | 27,6 | 13,3 | 13,5 | 18,3 |
| Namangan viloyati | 26,3 | 20,6 | 20,7 | 21,0 | 22,1 | 22,5 | 23,9 | 27,1 | 52,9 | 70,0 | 77,7 | 73,4 | 63,6 | 48,5 | 40,0 | 31,0 |
| Samarqand viloyati | 41,8 | 32,5 | 32,7 | 33,5 | 36,0 | 37,8 | 39,5 | 46,5 | 84,5 | 93,3 | 101,4 | 95,1 | 100,2 | 72,9 | 50,9 | 60,4 |
| Surxondaryo viloyati | 25,2 | 19,9 | 19,8 | 20,3 | 22,2 | 22,9 | 24,2 | 30,3 | 57,3 | 64,3 | 69,5 | 66,9 | 62,4 | 48,0 | 36,9 | 36,3 |
| Sirdaryo viloyati | 8,0 | 6,3 | 6,0 | 6,5 | 7,3 | 7,9 | 7,0 | 8,2 | 17,1 | 22,5 | 24,5 | 23,2 | 22,2 | 16,6 | 12,6 | 14,3 |
| Toshkent viloyati | 27,3 | 21,2 | 20,4 | 21,0 | 22,9 | 24,3 | 24,5 | 31,9 | 62,0 | 74,3 | 81,1 | 75,4 | 76,0 | 60,9 | 44,1 | 30,4 |
| Farg‘ona viloyati | 43,6 | 31,6 | 32,4 | 32,2 | 36,6 | 37,8 | 39,0 | 46,3 | 84,8 | 97,5 | 106,3 | 101,7 | 102,0 | 70,8 | 57,4 | 40,5 |
| Xorazm viloyati | 18,8 | 15,1 | 15,6 | 16,2 | 17,1 | 17,3 | 18,1 | 19,2 | 39,0 | 44,6 | 51,1 | 47,3 | 52,4 | 35,6 | 26,4 | 31,1 |
| Toshkent shahri | 21,8 | 19,0 | 17,7 | 18,8 | 19,7 | 20,8 | 19,7 | 24,9 | 51,3 | 51,4 | 56,7 | 53,3 | 54,4 | 40,5 | 41,4 | 38,1 |

**4-rasm. O‘zbekistonda ayollar o‘rtasidagi ishsizlar soni, ming kishi[4]**

Ushbu statistik ma’lumotlar ayollar uchun yangi va moslashuvchan bandlik imkoniyatlarini yaratish, ularni mehnat bozoriga faolroq jalb etish hamda mavjud mehnat salohiyatidan samarali foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, ride-hailing xizmatlari ayollar bandligini oshirish uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi mumkin. Biroq buning uchun ayollarning ushbu sohaga kirishiga to‘sqinlik qilayotgan xavfsizlik, transport vositasidan foydalanish, moliyaviy imkoniyatlar va ijtimoiy stereotiplar kabi omillarni hisobga olgan holda tegishli mexanizmlarni shakllantirish talab etiladi.

Ayollarni ride-hailing xizmatlariga jalb etish va ular uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda turli amaliy mexanizmlar shakllangan. Ushbu tajribalar ayollar uchun moslashuvchan bandlik imkoniyatlarini yaratish, xavfsiz transport xizmatlarini rivojlantirish hamda raqamli platformalar orqali ayollar bandligini qo‘llab-quvvatlashning samarali usullarini namoyon etadi. Mazkur jihatdan 2017-yilda

3 Manba: https://siat.stat.uz/data/4157/
4 Manba: https://siat.stat.uz/data/4156/

Avstraliyada tashkil etilgan Shebah platformasi e’tiborga loyiq tajribalardan biridir. Shebah ayollar va bolalarga yo‘naltirilgan ride-hailing xizmati bo‘lib, uning haydovchilari ayollardan iborat. Shebah nafaqat ayollarga ishonchli va xavfsiz transport xizmatidan foydalanish imkoniyatini beradi, balki ayol haydovchilarga o‘z ish jadvalini mustaqil belgilash va daromad topish imkoniyatini ham yaratadi. Ushbu mobil ilova orqali ishlaydigan taksi agregatori bolalarni ota-ona yoki qonuniy vakilning buyurtmasi asosida yolg‘iz tashish xizmatini ham ko‘rsatadi. Shebah kompaniyasi Charities Commission va Avstraliya Soliq boshqarmasida (Australian Taxation Office — ATO) ro‘yxatdan o‘tgan xayriya tashkiloti — Safe Transport Australia, shuningdek, texnologiya va biznes sohasida katta tajribaga hamda xavfsizlikka alohida e’tiborga ega bo‘lgan Ryde Safe International Pty Ltd kompaniyasining qo‘llab-quvvatlashiga ega [10].




**5-rasm. Google Play orqali Shebah mobil ilovasini yuklab olishlari soni[5]**

Mazkur tajriba ayollar bandligini ta’minlashda uchta muhim yo‘nalishning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Birinchidan, ayol haydovchilar uchun moslashuvchan daromad topish imkoniyati yaratiladi. Ikkinchidan, ayollar va bolalar uchun xavfsiz transport xizmati shakllantiriladi. Uchinchidan, raqamli platforma ushbu ikki yo‘nalishni yagona boshqaruv tizimiga birlashtiradi. Shu sababli, Shebah modeli transport xizmatlari va ayollar bandligini integratsiyalashgan holda boshqarishning xorijiy amaliy namunasi sifatida baholanishi mumkin.

O‘zbekiston amaliyotida ham ayollar bandligi va yo‘lovchilar xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan raqamli transport xizmatlarining shakllanayotganini ko‘rish mumkin. Xususan, MehrGo milliy taksi agregator platformasi oilalar, ayollar va jamoaviy safarlar uchun xavfsiz va mukammal milliy navigatsiya tizimini ishlab chiqayotgan startup loyiha hisoblanadi. MehrGo taksi agregator platformasida ayol yoki erkak haydovchini tanlash imkoniyati yaratilgan bo‘lib, MehrGo orqali bolalarni har kuni maktabga va uyga ishonch bilan yetkazish mumkin.




**6-rasm. MehrGo milliy transport agregator platformasini yuklab olishlar soni[6]**

Yuqoridagi loyihalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transport platformalari nafaqat yo‘lovchilarga qulay va xavfsiz xizmat ko‘rsatish, balki ayollarning transport xizmatlari bozoridagi ishtirokini kengaytirish uchun ham muhim vositadir. Shu nuqtayi nazardan, transport sohasida ayollar bandligini yanada oshirishga qaratilgan

5 Manba: https://play.google.com/store/apps/details?id=au.com.shebah
6 Manba: https://mehrgo.uz/index.html#home

integratsiyalashgan boshqaruv modelini davlat organlari, taksi agregatorlari, moliyaviy tashkilotlar, ta'lim muassasalari va ayol haydovchilar o'rtasidagi hamkorlik asosida shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv ayollarni transport sohasiga jalb etish, ularning kasbiy va raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish, transport vositasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish hamda barqaror daromad olish imkoniyatlarini ta'minlashni yagona boshqaruv tizimida birlashtirish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Transport sohasida ayollar bandligini ta'minlash mamlakatda gender tengligini mustahkamlash, ayollar daromadlarini oshirish, inson kapitalidan samarali foydalanish va iqtisodiy faollikni kengaytirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida shakllangan ride-hailing xizmatlari ayollarning transport sohasiga kirib kelishi uchun nisbatan qulay, moslashuvchan va yangi bandlik imkoniyatlarini yaratib, ushbu yo'nalishda ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishning istiqbolli vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur imkoniyatlarning amaliy jihatlari xalqaro tajriba misolida ham o'z tasdig'ini topadi. Xususan, Uber va boshqa ride-hailing platformalari faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollarning haydovchilik faoliyatiga jalb etilishida ish vaqtini mustaqil belgilash, qo'shimcha yoki asosiy daromad manbaiga ega bo'lish, faoliyatni raqamli platforma orqali nisbatan oson boshlash hamda moliyaviy mustaqillikka erishish imkoniyati muhim omillar hisoblanadi.

Biroq, O'zbekiston Respublikasida 2025-yil yakunlariga ko'ra, taksi agregatorlari orqali yo'lovchi tashish faoliyatida band bo'lgan o'zini o'zi band qilgan haydovchilarning 0,82 foizini ayollar tashkil etgani transport xizmatlari bozorida ayollarning iqtisodiy faolligi va mavjud bandlik imkoniyatlaridan foydalanish salohiyatini yanada kengaytirish uchun imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.Shu sababli, O'zbekiston Respublikasida transport sohasida ayollar bandligini oshirish maqsadida davlat organlari, moliya tashkilotlari, taksi agregatorlari, ta'lim tashkilotlari va ayollarning o'zaro hamkorligiga asoslangan integratsiyalashgan boshqaruv modelini takomillashtirish lozim. Tadqiqot natijasida taklif etilayotgan integratsiyalashgan boshqaruv modelining asosiy maqsadi ayollar uchun transport sohasiga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, mavjud to'siqlarni kamaytirish, xavfsiz va munosib mehnat sharoitlarini yaratish hamda ayol haydovchilarning uzoq muddatli iqtisodiy faolligini ta'minlashdan iborat.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:


1. Wikipedia. https://en.wikipedia.org/wiki/Transport (murojaat sanasi: 04.08.2026).
2. Peter Turnbul. (2023), "Promoting the employment women in the transport sector – obstacles and policy options", International Labour Office Geneva.
3. Freenow. "*Ride-hailing basics: What is it and how does it work?",* https://www.free-now.com/ie/business/blog/-ride-hailing-basic/ (murojaat sanasi: 04.08.2026).
4. Marin-Berges, Alejandro Gomez-Bruton, Isabel Iguacel. (2026), "Women in a masculinised occupation: A qualitative study of female taxi drivers in Zaragoza (Spain)", Journal of Transport & Health.
5. Shaibu Bukari, Licarion Kunwedomo Miine. (2026), "Lived experiences of female ride hailing drivers and the dynamics of opportunity and risk in Ghana", Discover Global Society.
6. Annisa Permata Yudiani, Mustafa Naseem, and Tawanna R Dillahunt. (2026), "Algorithmic and Gender-Specific Challenges of Gig Work in the IndonesianRide-Hailing Industry: Preliminary Findings", In Extended Abstracts of the 2026 CHI Conference on Human Factors in Computing Systems (CHI EA '26), April 13–17, 2026, Barcelona, Spain.
7. International Finance Corporation World Bank Group. (2018), "Driving Toward Equality: women, ride-hailing, and the sharing economy executive summary".
8. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. https://gov.uz/oz/soliq/news/ (murojaat sanasi: 06.08.2026).
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. SIAT – Statistika integrallashgan axborot tizimi. https://siat.stat.uz/data (murojaat sanasi: 06.08.2026).
10. Shebah. "Safe rides for women and children", https://www.shebah.com.au/ (murojaat sanasi: 08.08.2026).
11. Google Play. https://play.google.com/store/apps/details?id=au.com.shebah (murojaat sanasi: 08.08.2026).
12. Mehr Go. https://mehrgo.uz/index.html#home (murojaat sanasi: 08.08.2026).

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 8/1**

© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz